

# Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


## Doimiy aholi soni.

Namangan viloyatining doimiy aholisi soni 2018 yil 1 iyul holatiga 2720,4 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning yanvar-iyun oylarida 20,9 ming kishiga yoki 0,8 %ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 1756,9 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 64,6 %), qishloq aholisi soni 963,5 ming kishini (35,4 %) tashkil etdi.


### E'tibor bering: 2018 yil yanvar-iyun

- Aholi soni **20,9 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **27,4 ming nafarni** tashkil etdi.
- **6,0 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **6,9 mingta nikoh** va **1,2 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

## Namangan viloyati aholisining umumiy o'sishi (2018 yil yanvar-iyun oylarida)



### Tumanlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2018 yil 1 iyul holatiga, ming kishi)



Viloyat tumanlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil 1 iyul holatiga eng ko'p aholi soni Namangan shahrida 604,9 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 22,2 %ni) va Chust tumanida 257,0 ming kishini (9,4 %), aksincha eng kam aholi soni Mingbuloq tumanida 121,6 ming kishi (4,5 %) va Norin tumanida 158,6 ming kishini (5,8 %) tashkil etdi.

Tumanlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2017 yilning mos davriga nisbatan Namangan tumanida 2,1 %ni, Mingbuloq, Kosonsoy, To'raqo'rg'on, Uychi va Chortoq tumanlarida 1,9 %ni, Namangan shahrida 1,8%ni, qolgan tumanlarda o'sish sur'ati 1,7%ni tashkil etdi.



## Demografik holat

**Tug'ilish.** 2018 yilning yanvar-iyun oylarida 27,4 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 20,4 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,1 promillega oshgan (2017 yilning yanvar-iyun oylarida 20,3 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Namangan shahri (22,4 promilledan 23,0 promillega) va Chust tumanida (19,2 promilledan 20,1 promillega) sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha sezilarli kamayish Norin (20,9 promilledan 20,1 promillega) va Uchqo'rg'on (21,6 promilledan 20,8 promillega) tumanlarida kuzatildi.

### Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.



**Qiz bolalar:**  
12,9  
ming nafar

**O'g'il bolalar:**  
14,5  
ming nafar

### Hududlar kesimida tug'ilgan chaqaloqlar jinsi bo'yicha (kishi)

Shahar va tumanlar nomi	2017 yil		2018 yil		O'sish sur'ati % hisobida	
	O'gil bolalar	Qiz bolalar	O'gil bolalar	Qiz bolalar	O'gil bolalar	Qiz bolalar
Viloyat jami	14015	12735	14456	12938	103,1	101,6
Namangan shahri	3417	3155	3689	3196	108,0	101,3
Mingbuloq	612	558	583	592	95,3	106,1
Kosonsoy	1045	966	1078	943	103,2	97,6
Namangan	938	806	896	811	98,9	96,7
Norin	801	700	781	723	98,0	102,7
Pop	1073	930	1059	905	98,7	97,3
To'raqo'rg'on	1170	1106	1197	1125	102,3	101,7
Uychi	1159	988	1145	957	98,8	96,9
Uchqo'rg'on	807	718	786	756	97,4	105,3
Chortoq	823	747	871	757	107,0	100,0
Chust	1260	1141	1398	1159	108,6	104,2
Yangiqo'rg'on	910	920	973	1014	104,4	112,7

## Demografik holat

**Vafot etganlar.** 2018 yilning yanvar-iyun oylarida 6,0 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,4 promilleni tashkil etdi, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,4 promillega kamaydi (2017 yilning yanvar-iyun oylarida 4,8 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada kamayishi Mingbuloq (4,3 promilledan 3,7 promillega) Chust (4,7 promilledan 4,1 promillega), Namangan shahri (5,3 promilledan 4,8 promillega) Uchqo'rg'on (5,5 promilledan 5,0 promillega) va Uychi (5,3 promilledan 4,9 promillega) tumanlarida kuzatildi.

### Vafot etganlar



**Erkaklar:**  
3,2 ming  
kishi

**Ayollar:**  
2,8 ming  
kishi

### Hududlar kesimida vafot etganlar bo'yicha (kishi)


Shahar va tumanlar nomi	2017 yil	2018 yil	O'sish sur'ati % hisobida
Viloyat jami	6362	5967	93,8
Namangan shahri	1560	1445	92,6
Mingbuloq	252	222	88,1
Kosonsoy	391	387	99,0
Namangan	356	349	98,0
Norin	389	364	93,6
Pop	470	430	91,5
To'raqo'rg'on	498	473	95,0
Uychi	524	493	94,1
Uchqo'rg'on	448	409	91,3
Chortoq	393	393	100,0
Chust	589	519	88,1
Yangiqo'rg'on	492	483	98,2

## Demografik holat

2018 yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 60,6 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 8,4 %i o'simtalardan, 5,8 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,7 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 5,8 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,4 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 12,3 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 329 nafarni tashkil etib, ularning 35,9 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 34,3 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 18,5 %i tug'ma anomaliyalardan, 3,6 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,6 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan va 3,1 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

### Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



### 2018 yil yanvar-iyun

**Tabiiy o'sish.** 2018 yilning yanvar-iyun oylarida aholining tabiiy o'sishi 21,4 ming kishini tashkil etib, 2017 yil mos davriga nisbatan 1,0 ming kishiga (2017 yilning yanvar-iyun oylarida 20,4 ming kishi bo'lgan) o'sgan.



Tabiiy o'sish:  
21,4 ming kishi

## Demografik holat

**Nikoh.** 2018 yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 6,9 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koefitsiyenti 5,2 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari To'ra'org'on (139,6 %), Namangan (116,9 %), Uychi(116,3 %) Mingbuloq (115,4 %), Chust (106,2 %) va Chortoq (103,6%) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.



**Туманлар бўйича жадвал куйинг ўсиши билан (киши)**



**Nikohdan ajralishlar.** 2018 yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 1,2 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koefitsiyenti 0,9 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Pop (146,4%), Chortoq (129,7%), Kosonsoy (122,2 %), Norin (114,8 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Shahar va tumanlar nomi	Nikoh		Nikohdan ajralish		O'sish sur'ati % hisobida	
	2017 yil	2018 yil	2017 yil	2018 yil	Nikoh	Nikohdan ajralish
viloyat jami	6579	6925	1188	1223	105,3	102,9
Namangan shahri	1370	1403	292	264	102,4	90,4
Mingbuloq	298	344	44	44	115,4	100,0
Kosonsoy	419	434	90	110	103,6	122,2
Namangan	290	339	84	67	116,9	79,8
Norin	431	405	81	93	94,0	114,8
Pop	649	622	84	123	95,8	146,4
To'raqo'rg'on	495	691	97	89	139,6	91,8
Uychi	496	577	77	82	116,3	106,5
Uchqo'rg'on	426	428	77	91	100,5	118,2
Chortoq	406	426	64	83	104,9	129,7
Chust	729	774	104	104	106,2	100,0
Yangiqo'rg'on	570	482	94	73	84,6	77,7

**Migratsiya.** 2018 yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 2,4 ming kishini , ko'chib ketganlar soni esa 3,0 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 0,6 ming kishi bo'lib, 2017 yilning mos davrida minus 0,6 ming kishi bo'lgan.

### Aholi migratsiyasi (kishi)

	2017 yil yanvar-iyun	2018 yil yanvar-iyun
<b>Ko'chib kelganlar</b>	2129	2379
<b>Ko'chib ketganlar</b>	2769	2958
<b>Migratsiya saldosi</b>	-640	-579

Migratsiya saldosinging yuqori darajasi Namangan shahrida (minus 803 kishi), To'raqo'rg'on tumanida (minus 38 kishi), Norin tumanida (minus 44 kishi) qayd etildi.